

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi e'loni

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshishini, balki byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barpo etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2024-yildagi **"Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan **"Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"**gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi barpo etish loyihasi (*quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang*) ishlab chiqilayotganligi ma'lum qilinadi.

Loyiha doirasida tadbirkorlik subyekti va Davlat sherigining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **400 o'rinli** talabalar turar joyi quriladi, Bunda, xususiy sherik talabalar turar joylarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha to'liq moliyalashtiradi.

Loyiha doirasida xususiy sherik va byudjet mablag'lari hisobiga qurilgan talabalar turar joyi binosi **30 yildan** so'ng davlat sherigiga soz holda qaytariladi.

Xususiy sherik 30 yil davomida talabalarga yotoq joy xizmatlarini ko'rsatadi, talabalar turar joyini soz holda saqlash va sifatli xizmat ko'rsatish xususiy sherik hisobidan amalga oshiriladi.

Yotoq joy uchun talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori davlat sherigi bilan kelishilgan holda o'rnatiladi. Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari 38.25154124208687, 67.90720637523204



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud boʻlgan taqdirda, 2025-yil 9-fevralga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

1. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti:

190507, Surxondaryo viloyati, Denov tuman Qoʻzichoqli MFY Bogʻ koʻchasi 112-uy.

Elektron pochta manzili: info@dtpi.uz

Telefon raqami: +998 76 228 08 27, +998 99 282 16 00

2. Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi

100095, Toshkent shahri Talabalar koʻchasi 7-uy.

Elektron pochta manzili: devonxona@edu.uz

Telefon raqami: 55 520-08-08

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi binosini loyihalashtirish, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko‘rsatish va qaytarishni tashkil etish loyihasi to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Asosiy ko‘rsatkichlar	Ma’lumotlar
1.	Loyihaning nomi	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hududida davlat-xususiy sheriklik asosida 400 o‘rinli talabalar turar joyi binosini loyihalash, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko‘rsatish va qaytarishni tashkil etish.
2.	Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi: Xususiy tashabbuskor:	Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “SURXON-NURAFSHON” MCHJ
3.	Loyihaning faoliyat yo‘nalishi	Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talabalari turar joy bilan ta‘minlanadi.
4.	Loyihaning joylashgan manzili	Surxondaryo viloyati, Denov tuman Qo‘zichoqli MFY Bog‘ ko‘chasi 112-uy, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hududida
5.	Loyihani amalga oshirish muddati	1 yil.
6.	Loyihaning amal qilish muddati	30 yil.
7.	Iste‘molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari	Talabalarga turar joyda yashagani uchun oyiga 375,0 ming so‘m
8.	Loyihaning umumiy qiymati	32 902,8 mln so‘m
9.	Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi va turlari	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hududidan 0,3 ga yer maydoni vaqtincha foydalanishga beriladi; Vazirlar Mahkamasining 563-sonli qarorining 1(b)-bandiga muvofiq, xususiy sherikka talabalar turar joyini qurish uchun loyiha bo‘yicha to‘liq tadbirkor tomonidan moliyalashtiriladi.